# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARDAN FOYDALANISH

***Qandimova Nasiba***
*Buxoro davlat pedagogika instituti*
*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*
*(boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistri*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili savodxonligi darslarini tog'ri tashkil etish va qo'llaniladigan metodlar haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Shuningdek, namunaviy dars ishlanma taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, fan, interfaol metod, na'munaviy ta'lim, modifikatsiyalashgan ta'lim.

Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilim olishi, ularni bilimga qiziqtirish birinchi o'rinda turishini barcha juda yaxshi biladi. O'quvchi o'qituvchi bergan har bir bilimini yaxshi o'zlashtirishi, ularni chuqur darajada o'rganishi uchun turli xil metodlarni qo'llash kerak bo'ladi. Yangicha metod yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish haqida so'z ketganda interfaol metodlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi, tushunilishi beliz emas. Hozirgi vaqtga kelib, ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari va usullari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning interfaol metodlari va usullarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishishga olib keladi. Bu metod va usullarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Faqatgina o'qituvchi emas, balki o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchi ham dars jarayonida faol bo'lishi hozirgi kunning talablaridan biri hisoblanadi. Bolalarga dars jarayonlarini turli xil ko'rnishdagi metodlar, usullar orqali, o'yinlar orqali ularga tushuntirib ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

**4 – sinf "Ona tili savodxonligi" (3-qism)**
**Sana__________________**

**Mavzu:** Ot yasovchi qo'shimchalar 172-174-mashqlar

**Maqsad: Ta'limiy:** o'quvchilarda ot yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi ma'nodagi ot yasash orqali tilda so'zlarning boyib borishi haqida ma'lumot hosil qilish.

**Tarbiyaviy:**o'quvchilarning kasblar haqidagi tushunchalarini aniqlash va har bir kasbning o'ziga xos qiziqarli tomonlarini ochish orqali ularni kasbga yo'naltirish.

**Rivollantiruvchi:**So'zlardan maqsadga muvofiq foydalana olish malakalarini takomillashtirish;

**Darsning turi:** umumlashtiruvchi,mustahkamlovchi

**Darsning metodi:** savol-javob, aqli hujum, mustaqil ish.
**Darsning jihozi:** rasm va jadvallar**.**

**Darsning borishi**:

| T/R | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 2 daqiqa |
| **2** | Uy ishini tekshirish | 4 daqiqa |
| **3** | Yangi mavzuni tashkil etishga o‘tish | 2 daqiqa |
| **4** | Yangi mavzuni yoritish | 14 daqiqa |
| **5** | Yangi bilimlarni tekshirish va mavzuni | 10 daqiqa |
| **6** | O‘rtog‘ingni tekshir bellashuvi | 10 daqiqa |
| **7** | Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash | 2 daqiqa |
| **8** | Uyga vazifa | 1 daqiqa |
| **9** | Jami | 45 daqiqa |

**I.Tashkiliy qism.**
Davomatni aniqlash.
Navbatchi axboroti.
Darsga hozirlikni tekshirish.
**II.O‘tilgan mavzuni so‘rash va baholash. "Aqli hujum" metodi.**
-Otlar gapda boshqa so‘zlar bilan nimalar yordamida bog‘lanadi?
- Kelishiklarning nomi, so‘rog‘i va qo‘shimchasini tartib bilan ayta olasizmi?
-Qaysi kelishik qo‘shimchasi otni otga, qaysilari otni fe’lga bog‘laydi?
-Otlar gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?
-Qaysi qo‘shimchalar yordamida yangi otlar hosil qilinadi?

**III.Yangi mavzu bayoni.** 172- mashq. Matnni o‘qing. Alratib ko‘rsatilgan otlarni ko‘chirib, asos va qo‘shimchalarga alrating.

*Baxtli kunlar, rangin **gullar***
*Quchog‘ida tug‘ilding sen.*
*Seni o‘ylab uzoq tunlar,*
*Milla qoqmas **chegarachi.***
***Binokorlar marmarlardan...*** *(Quddus Muhammadiy)*



**Topshiriq**
**So‘zlarga mos keluvchi qo‘shimchalarni aniqlang va ularga mos gap tuzing.**

**Namuna:** ***soatsoz.*** ***Anvar bilan birgalikda soatsozga bordik.***




O’quvchilar topshiriqni bajaradi:

Soatsoz, gilamdon,
oymomo, kitobxon
pichoqchi, do’ppido’z

Hosil bo’lgan otlar ishtirokida gaplar tuzish topshirig’i ham beriladi.

**Topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing. Bu ishlarni “erta” va “kecha”so‘zlari orqali gap tuzing.**

*Namuna:* Men ***kecha*** uyga vafizani bajardim.
Men ***ertaga*** uyga vazifasini bajaraman**.**




**IV Mustahkamlash.** 173- mashq. Rasmda nimalar tasvirlangan? Bu sport turlari bilan shug‘ullanuvchilarni yozing.



Futbolchi, bokschi, shaxmatchi, tennischi.

**V.Baholash**.Darsdagi ishtiroklariga ko‘ra baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** 174 –mashq. O‘qing. So‘zlarga mos so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

Sinfdosh, tennischi futbolchi, gulzor, soatsoz, binokor, uzumzor, partadosh.

Ushbu mavzu yuzasidan tayyorlanga dars ishlanma va undagi materiallar, metodlar o’quvchilarning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘qitish jarayonlarida noan’anaviy ta’lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish», «Kasbga bog‘lab dars o‘tish», «Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish», «Evrika(o‘ylab top)»; ta’limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Rolli o‘yinlar», «Sahna ko‘rinishi», «Krossvordlar yechish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish», «Sinkveyn o‘yinlari»; shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari: « Modifikatsiyalashgan ta’lim», «Improvizasiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tanqidiy tafakkurni rivollantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli va boshqalarni qo‘llash muhimdir.